

10-SINF “O‘ZBEK TILI” DARSIDA “O‘ZBEK TILI TARIXIDA” MAVZUSIDAGI TOPSHIRIQLARNI ZAMONAVIY USULLAR ORQALI TASHKIL ETISH

Xudayarova Muxabbat Tajimuratovna
f.f.n., dots. Nukus DPI

Musayeva Manzura Alisher qizi
*Ajiniyoz nomidagi NDPI Turkiy tillar
fakulteti 4-bosqich talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada bugungi ta’lim jarayonida “O‘zbek tili” darslarini tashkil etishda o‘quvchilarning leksikologiyaga oid bilim, ko‘nikma va malakalarni rivojlantirish, topshiriqlarni tashkil etishda zamonaviy usullardan foydalanish haqida bayon qilinadi.

Kalit so‘zlar: o‘zbek tili, dars, topshiriq, leksikologiya, usul, zamonaviy, ravish, sinonim, antonim.

Abstarct: This thesis discusses the development of students' knowledge, skills, and competencies in lexicology in the context of organizing "Uzbek language" lessons in today's educational process, as well as the use of modern methods in organizing tasks.

Keywords: Uzbek language, lesson, task, lexicology, method, modern, adverb, synonym, antonym.

“Maktabda “Leksikologiya” bo‘limini o‘qitishdan ko‘zlanadigan asosiy maqsad o‘quvchilarni o‘zbek adabiy tilining so‘z xazinasiga olib kirish, ularning so‘z zaxirasini oshirish va so‘zdan to‘g‘ri hamda o‘rinli foydalanish malakalarini rivojlantirishdan iboratdir”¹ Leksikologiya oid bilimlarni faqat biror sinf yoki bo‘lim doirasida o‘qitish bilan cheklab qo‘yolmaymiz, albatta. “Boshlang‘ich sinflardna akademik lisey va kasb-hunar kollejlarigacha bo‘lgan davrda o‘quvchilar o‘rganadigan so‘zlar lug‘ati kengaytirilib boriladi. Bunda bir qancha xususiyatlar e‘tiborga olinadi. Xususan: so‘zlarning amaliy ahamiyati, ya’ni butun ta’lim jarayoni uchun ma’rifiy ahamiyatga ega bo‘lgan so‘zlar; so‘zlarning amaliyotda qo‘llanish darajasi, uning muntazam yoxud alohida holatlardagina qo‘llanishi; so‘z ma’nosining to‘la tushunilishi, o‘rinli va nutqiy vaziyatga mos ravishda ishlatilishi nazarda tutiladi”² 10-sinf “O‘zbek tili” darsi misolida leksikologiyaga oid topshiriqlarni zamonaviy usullar orqali tashkil etish usullarini ko‘rib chiqsak.

10-sinf “O‘zbek tili” darsligining “O‘zbek tili tarixidan” mavzusidagi 3-topshiriqda “O‘ylang va toping. Yozing”³ topshirig‘i berilgan. Bunda berilgan

¹ [A.G‘ulomov, M.Qodirov, M.Ernazarova, va boshq. Ona tili o‘qitish metodikasi. –T.: “Fan va texnologiya”, 2012, 155-bet]

² [B .To‘xliyev, M.Shamsiyeva, T.Ziyodova. O‘zbek tili o‘qitish metodikasi. o‘quv qo‘llanma. O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, T.: 2006, 67-bet]

³[O‘zbek tili 10 [Matn] : darslik / G.A.Asilova [va boshqa.]. – T.: Respublika ta’lim markazi, 2022, 19-bet]

gaplarni ko‘chirib, ravish so‘z turkumiga oid so‘zlarning tagiga chizish kerakligini anglashimiz mumkin. Lekin bu haqida na darslikda, na metodik qo‘llanmada aniq tushuntirilmagan. Va 10-sinf o‘quvchisi uchun bu juda oddiy yozma topshiriq hisoblanadi. Quyida ushbu topshiriqni zamonaviy usullar orqali bajarish namunasini taklif qilishimiz mumkin.


3. Topshiriq.

1. Go ‘dak ona allasini tinglayotib tez uxlab qoldi.
2. Bu yil daraxtlar erta uyg‘ondi.
3. Maktablararo musobaqada sinfdoshim tez yugurgani uchun birinchilikni qo‘lga kiritdi.
4. Akamni anchadan beri intiqlik bilan kutayotgan onam unga darrov peshvoz chiqdi.
5. Ekinni erta ekan hosilni erta o‘rar.
6. Arslonbek intizomga qat‘iy rioya qiladigan odam bo‘lishiga qaramay, negadir majlisga kech keldi.

Dastlab gaplarning hammasi bilan tanishib chiqib, ulardagi ravish so‘z turkumiga oid so‘zlarning sinonim, antonimlik munosabatlarini ko‘rib chiqishimiz mumkin. Bir so‘zning turli xil gaplarda qo‘llanilganida yuzaga keladigan ma’no nozikliklari ustida fikr yuritish lozimdir.

Ravish turkumiga oid so‘zlarning sinonimlik va antonimlik munosabatini yanada yaxshiroq anglashlari uchun internet platformlarida testlar tashkil qilish mumkin. Masalan, www.proprofs.com saytidan foydalanib yaratilgan testlarga namuna:

1. Dastlab shaxsiy ma’lumotlar kiritiladi. Bu ma’lumotlar testdan keyin o‘quvchilar saytdan sertifikat yuklab olishlari uchun so‘raladi.



2. 1-topshiriqda berilgan ravish turkumiga oid so‘zlarning antonimini topadilar.

O‘ZBEK TILI TADQIQI VA TA‘LIM MUAMMOLARI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI

www.proprofs.com TOPSHIRIQ

TOPSHIRIQ
Total Questions: 2

* 1) Antonimlarni toping.

ko'p _____ oz _____
tez _____ sekin _____
astoydil _____
oldin _____
bir talay _____

Select a Match
Select a Match
keyin
majburan
ilgari
oz
avval
sekin
hamon
ozgina

Активация Windows
Чтобы активировать Windows, перейдите в "Параметры".

3. 2-topshiriqda berilgan ravish turkumiga oid so‘zlarning sinonimini topadilar.

www.proprofs.com TOPSHIRIQ

Total Questions: 2

2) Sinonimlarni toping.

Choice	Correct answer(s)
qo'qqisdan _____	to'satdan _____
piyoda _____	yayov _____
avval _____	ilgari _____
keyin _____	_____
hanuz _____	_____
biroz _____	_____

ozgina so'ngra kam ko'p tez ataylab majburan hamon

4. Barcha testlar yakunlangach natija va to‘g‘ri javoblar ko‘rinadi.

www.proprofs.com Score Report: TOPSHIRIQ

0 Points Question (Non Graded Questions)

1) Antonimlarni toping.

Choice	Correct Answer	Your Response	
ko'p	oz	oz	✓ Correct
tez	sekin	sekin	✓ Correct
astoydil	majburan	majburan	✓ Correct
oldin	keyin	keyin	✓ Correct
bir talay	ozgina	ozgina	✓ Correct

✓ Correct

2) Sinonimlarni toping.

Choice	Correct answer(s)
qo'qqisdan _____	to'satdan _____
piyoda _____	yayov _____
avval _____	ilgari _____
keyin _____	so'ngra _____
hanuz _____	hamon _____
biroz _____	ozgina _____

Активация Windows
Чтобы активировать Windows, перейдите в "Параметры".

Yuqoridagi kabi topshiriqlarni “Wordwall”, “Educaplay”, “LearningApps”, “BookWidgets” kabi saytlarda ham tayyorlab, darsni yanada qiziqarli, mazmunli va samarali tashkil qilishimiz mumkin. Asosiy maqsad o‘quvchilarning so‘z boyligini oshirish, ma’nolarini anglash va to‘g‘ri qo‘llay olish ko‘nikmalarini shakllantirishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. A.G‘ulomov, M.Qodirov, M.Ernazarova, va boshq. Ona tili o‘qitish metodikasi. –T.: “Fan va texnologiya”, 2012.
2. A. G‘ulomov. Ona tili o‘qitish prinsiplari va metodlari. - T.: „O‘qituvchi“, 1992.
3. B .To‘xliyev, M.Shamsiyeva, T.Ziyodova. O‘zbek tili o‘qitish metodikasi. o‘quv qo‘llanma. O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, T.: 2006.
4. O‘zbek tili 10 [Matn] : darslik / G.A.Asilova [va boshqa.]. – T.: Respublika ta‘lim markazi, 2022.
5. O‘zbek tili [Matn]: 10-sinf o‘qituvchilari uchun metodik qo‘llanma / Dilafroz Xidoyatova [va boshq.]. – Toshkent: Respublika ta‘lim markazi, 2022.

6. Xudayarova, M., & qizi Usanova, Q. M. (2023). O ‘ZBEK, RUS VA QORAQALPOQ TILLARIDA OTLARNING KELISHIK KATEGORIYALARI. CHIQISH KELISHIGI QIYOSI. GOLDEN BRAIN, 1(4), 62-66.
7. Usanova, Q., & Xudayarova, M. (2023). O ‘ZBEK, RUS VA QORAQALPOQ TILLARIDA OTLARNING KELISHIK KATEGORIYALARINING QIYOSIY TADQIQI. Евразийский журнал математической теории и компьютерных наук, 3(6), 54-56.
8. Xudayarova, M., & Usanova, Q. (2023). “BOBURNOMA”–TARIXIY MANBA SIFATIDA. Академические исследования в современной науке, 2(4), 24-27.
9. Худаярова, М. Т., Буранова, Ш. М., Юсупова, Г. А., & Сапарова, А. З. (2021). Қорақалпоғистон Худудида Яшовчи Туркий Халқлар Тилидаги Таом Номларининг Лексик Қатламлари. BOSHQARUV VA ETIKA QOIDALARI ONLAYN ILMIY JURNALI, 1(5), 25-32.
10. Xudayarova, M. (2020). Qoraqalpog'iston o'zbek shevalaridagi taom nomlarining o'ziga xos xususiyatlari. TDPU ILMIY AXBOROTLARI.
11. Tajimuratovna, X. M. (2024). QORAQALPOG ‘ISTON HUDUDIDAGI EKKLEZIONIMLARNING GRAMMATIK XUSUSIYATLARI. INTERNATIONAL JOURNAL OF RECENTLY SCIENTIFIC RESEARCHER'S THEORY, 2(3), 179-183.
12. Usanova, Q., & Xudayarova, M. (2024). O‘ZBEK, RUS VA QORAQALPOQ TILLARIDA FE’L SO ‘Z TURKUMI. Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры, 4(3), 25-27.